



ALEKSANDR FAYNBERGNING “ZOMIN-2006” SHE’RIDA ISTE’DOD VA HASAD QARAMA-QARSHILIGI

*Esonaliyeva Xusnida Shavkatjon qizi O'zbekiston Davlat jahon tillari
universiteti 2-bosqich talabasi husnidaesonaliyeva@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg va uning “Zomin - 2006” she’ri, she’rning yaratilish sababi, nega A.Oripovga bag’ishlangani, she’rning asosiy g’oyasi, unda qo’llangan badiiy tasviriy vositalar, shuningdek, she’r orqali har bir iste’dod sohibi o’ziga qanday xulosalarni olishi mumkinligi haqida ma’lumot beriladi.

Annotation: This article discusses Aleksandr Faynberg and his poem “Zomin – 2006”, the reasons behind the creation of the poem, why it is dedicated to Abdulla Oripov, the main idea of the poem, the artistic and expressive devices used in it, as well as the conclusions that every talented individual can draw from the poem.

Аннотация: В данной статье рассматриваются творчество Александра Файнберга и его стихотворение «Зомин – 2006», причины создания данного произведения, причины посвящения стихотворения Абдулле Орипову, его основная идея, использованные в нём художественно-изобразительные средства, а также выводы, которые может сделать каждый обладатель таланта на основе данного стихотворения.

Kalit so’zlar: Aleksandr Faynberg, “Zomin – 2006”, A.Oripov, iste’dodli shoirlar, tazod, jonlantirish, tabiat manzarasi.

Keywords: Aleksandr Faynberg, “Zomin – 2006”, Abdulla Oripov, talented poets, contrast (antithesis), personification, natural landscape.



Ключевые слова: Александр Файнберг, «Зомин – 2006», Абдулла Орипов, талантливые поэты, антитеза, олицетворение, пейзаж (картина природы)

Aleksandr Faynberg - qalbi o'zbek bo'lgan rus shoiri. U hayoti davomida bir-biridan betakror asarlarni yaratdi. Ayniqsa, uning ko'plab she'rlarida inson his-tuyg'ularini tabiat va atrof muhit bilan birga uyg'unlashtirganini ko'rishimiz mumkin. Shu kabi ijod mahsullaridan biri bu "Zomin – 2006" she'ri bo'lib, bu she'rda ham shoir insoniylik hislarini juda katta mahorat bilan ochib bergan. Aleksandr Faynberg ijodida ushbu she'r shoirning hayot, ijod va iste'dod haqidagi falsafiy qarashlarini mujassam etgan muhim asarlardan biridir. Ushbu she'rda shoir tabiat tasviri orqali ijodkor ruhiyati, erkinlik va balandlik g'oyalarini chuqur badiiy talqinda ifodalaydi. Zomin manzarasi Faynberg uchun oddiy makon emas, balki ilhom, ruhiy poklanish va ichki ozodlik timsolidir.

She'ring yaratilishiga shoirning ijodkor taqdiriga bo'lgan munosabati, iste'dodli insonlar hayotida uchraydigan adolatsizliklar va hasadgo'y qarashlar sabab bo'lgan. Faynberg iste'dod va pastkashlik o'rtasidagi qarama-qarshilikni ochib berish orqali ijodkorning jamiyatdagi o'rni haqida mulohaza yuritadi. Ayniqsa, buyuk shoirlar ko'pincha tanqid, bepisandlik va hasadga duch kelishi she'ring asosiy falsafiy negizini tashkil etadi. Ushbu she'rni Aleksandr Faynberg Abdulla Oripovga bag'ishlagani ham bejizga emas. "Zomin - 2006" she'ri shoirning A.Oripov shaxsiga bo'lgan hurmati va ma'naviy yaqinligi natijasida yaratilgan. Faynberg Oripov timsolida baland ruhli, erkin fikrli ijodkor obrazini ko'rsatadi. Shu bois she'r ijodkorning ruhiy parvozi, iste'dod erkinligi va haqiqatni dadil kuylash g'oyalaridan kelib chiqib yaratilgan deyish mumkin. Asar shoirning inson va jamiyat, iste'dod va hasad, balandlik va pastlik haqidagi mushohadalarining badiiy ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.



Ushbu she'rdagi qanday ma'no-mazmun yashiringanini bilish uchun har bir misralar izohiga to'xtalish darkor.

Azaldan dunyoda yaratgan egam,

Bir yaxshiga bir yomon degan hayotni.

Iste'dodi yuksak har shoirga ham,

Hamroh qilgan doim bir pastkash zotni.

She'r shu tarzda ya'ni hayotning azaliy qonunini ochib berish bilan boshlanadi. Dunyo yaxshilik va yomonlik muvozanatida yaratilgani, har bir ezgulikka qarshi yovuzlik mavjudligi ta'kidlanadi. Ayniqsa, iste'dodli shoirlar taqdirida pastkashlik va hasad doimiy hamroh bo'lishi hayotiy haqiqat sifatida ko'rsatiladi.

Shoir bu fikrni shaxsiy shikoyat sifatida emas, balki umumiy falsafiy xulosa tarzida beradi. Ya'ni, iste'dod — sinovsiz bo'lmaydi. Ushbu to'rtlikning asosiy g'oyasi shunday: hayot qarama-qarshiliklar asosida quriladi, buyuk iste'dod doimo hasadni uyg'otadi, ijodkor taqdiri esa sinovli yo'ldir. Bundan tashqari shoir she'rning boshlanishida tazod ya'ni qarama-qarshilik san'atini o'rinli qo'llaydi (*yaxshi - yomon, iste'dodli shoir – pastkash zot*).

Iste'dodsiz kishi ich-etini yeb,

Hasad va qo'rquvda ko'rar ekan kun.

Bizning ko'ksimizga hur shamol tegib,

Baland osmonlarda uchgaymiz mamnun.

Bu to'rtlikda shoir iste'dodsiz va iste'dodli insonlar ruhiy holatini keskin qarama-qarshi qo'yadi. Iste'dodsiz kishi hasad va qo'rquv ichida yashab, ichki iztirob bilan "ich-etini yeydi". Bunga qarama-qarshi tarzda iste'dodli ijodkorlar erkinlik, yengillik va ruhiy parvoz holatini boshdan kechiradi. Bu yerda shoir o'zini



“biz” shaklida ifodalab, iste’dod egalari safida turishini ochiq ko’rsatadi. Ushbu misralarda shoir A.Oripovning ijodiga ham ishora qilib ketganini sezishimiz mumkin. “Bizning ko’ksimizga hur shamol tegib” misrasi Abdulla Oripov ijodiga xos bo’lgan erkin, dadil va baland ruhni eslatadi. Shoir Oripovni hasad va qo’rquvdan yiroq, haqiqatni qo’rqmasdan kuylagan ijodkor sifatida talqin qiladi. Bu misralarda ham shoir tazod va metaforadan foydalanganini ko’ramiz. “ich etini yeb” iborasi ruhiy iztirob, ichki azob kabi ma’nolarini bildirsa, “hur shamol” erkinlik, ozod fikr va ilhom timsoli sifatida qo’llangan, “uchgaymiz” so’zi esa ruhiy parvoz va ijodiy yuksalish ma’nolarini bildiradi.

Zomin. Yoz. Yulduzlar chalur ajib soz,

Ohang may kayfidek aylar bizni mast.

Mayli, u imzosiz xatga bitsin roz,

Unga kuy tinglashni buyurgan emas.

Bu to’rtlikda shoir Zomin manzarasini yoz fasli va yulduzlar ohangi orqali tasvirlaydi. Tabiat bu yerda tirik, ovozli va hissiyot uyg’otuvchi kuch sifatida namoyon bo’ladi. Yulduzlarning “ajoyib soz chalishi” ijodkor qalbida ilhom uyg’otadi, bu ohang insonni mast qiluvchi kuchga ega. Shoir ilhomning majburiy emas, balki ichki ehtiyoj va tabiiy jarayon ekanini ta’kidlaydi. Misralarda metafora, tazod va jonlantirishdan foydalanilganini ko’rishimiz mumkin. Masalan, “yulduzlar chalur ajib soz” gapida yulduzlarga insoniy xususiyat berilgan. Aleksandr Faynberg bu misralar orqali ilhomni tabiat bilan uyg’un, majburiyatsiz va samimiy ruhiy holat sifatida tasvirlaydi.

Bizlar ucharkanmiz shamolda ozod,

Ular hasad qilsin, mayliga, zimdan.

Shoirlarni ko’kka ko’tarsa hayot,



Boplab kular ekan hasadgo'y – shumdan.

Bu to'rtlikda shoir iste'dodli ijodkorlarning ruhiy erkinligi va hasadgo'ylarning ojiz holatini keskin qarama-qarshi qo'yadi. Ijodkorlar shamolda erkin uchayotgan paytda, hasadgo'ylar faqat yashirincha hasad qilish bilan kifoyalanadi. Hayot shoirlarni yuksakka ko'targan sari, hasadgo'ylar bu yuksalish oldida kulgili va achinarli holga tushadi. Shoir iste'dodning muqarrar g'alabasini va hasadning ojizligini tazod va kinoya orqali yoritadi.

Toshlarga urilib, qiqirlar irmoq,

Archalar o'ralgan qoyalar kumush.

Zero, ig'vogarlar bilan bahs qurmoq,

Azaldan kulgili, bema'ni yumush.

She'ning yakunida shoir tabiat manzarasiga asosiy ma'noni yuklaydi, u orqali muhim falsafiy xulosani beradi. Irmoqning toshlarga urilib oqishi hayot yo'lida uchraydigan to'siqlarni anglatadi. Shunga qaramay, irmoq o'z yo'lidan qaytmaydi. Archalar bilan o'ralgan kumushrang qoyalar esa tabiatning sokinligi va buyukligini ifodalaydi. Bu manzara fonida shoir ig'vogarlar bilan bahslashishning behudaligi haqida xulosa chiqaradi. Shuningdek, ijodkorning o'z yo'lida sobit qolishi g'oyasini so'nggi misralarda umumlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg "Zomin – 2006" she'rida tabiat manzarasi orqali bir iste'dod sohibi hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ikkiyuzlamachi va hasadgo'y insonlar haqida o'z fikrlarini bayon qilgan. Bu she'ning shoir A.Oripovga bag'ishlab yozilgani ham bejizga emas, shoir katta iste'dod va mahorat sohibi edi. Tabiiyki, uning atrofida ham ig'vogar va hasadgo'y kimsalar ko'p bo'lgan. Aleksandr Faynberg esa A.Oripov timsolida barcha iste'dod sohiblariga murojaat qilib, ijod yo'lida to'xtamasligini, bu kabi



ig'vogar kimsalar har qadamda topilishi, shunchaki ularga e'tibor bermagan holda ijod osmonida baland uchish kerakligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/download/16408/11376/14059>
2. <https://share.google/CPsPRRPTaLUkQEB1w>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
4. View of XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDAGI O'ZBEK SHE'RIYATIGA FAYNBERGNING TA'SIRI.
<https://spaceknowledge.com/index.php/JOISR/article/view/3464/3689>
5. Aleksandr Faynberg "Qoralamaga qasida" kitobi